



Vebsayt: <http://2ndsun.uz/index.php/yt>

BADIIY MATNNI STRUKTUR-SEMANTIK TAHLIL QILISHDA SINTAGMATIK BELGI TIZIMINING POETIK-FUNKSIONAL AHAMIYATI

Rayhonoy Abdugʻaniyevna Saidova

Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti dotsenti

INFO:

Qabul qilindi: 25.03.2022
Koʻrib chiqildi: 26.03.2022
Chop etildi: 27.03.2022

Kalit soʻzlar: *Badiy matn, semantik tahlil*

ANNOTATSIYA

Semiotika belgi haqidagi fan sifatida juda koʻp sohalarga kirib borgan. Taraqqiy etgan Gʻarb davlatlari oʻz siyosat, mafkura, dunyoqarash va taʼlimotlarini targʻib etishda belgi-buyum, belgi-suvrat kabilardan keng foydalanadilar. Belgi haqidagi qarashlarni badiiy adabiyotga nisbatan qoʻllash katta samara berayotir. Chunki adabiyotshunoslikning tadqiq manbai boʻlgan badiiy matn boshdan oxir belgilar tizimidan iborat.

Copyright © 2022. [Creative Commons Attribution 4.0 International License](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/)

Semiotika belgi haqidagi fan sifatida juda koʻp sohalarga kirib borgan. Taraqqiy etgan Gʻarb davlatlari oʻz siyosat, mafkura, dunyoqarash va taʼlimotlarini targʻib etishda belgi-buyum, belgi-suvrat kabilardan keng foydalanadilar. Belgi haqidagi qarashlarni badiiy adabiyotga nisbatan qoʻllash katta samara berayotir. Chunki adabiyotshunoslikning tadqiq manbai boʻlgan badiiy matn boshdan oxir belgilar tizimidan iborat.

Fransuz strukturalizmining otaxonlaridan biri hisoblangan Rolan Bart “Belgi munosabatlari” deb nomlangan tadqiqotida sintagmatik munosabatlar “qarindoshlikka emas, qoʻshnichilikka asoslangani” ni qayd etgan edi, alloma oʻz qarashini ilmiy jamoatchilikka yaxshiroq anglatish uchun shunday bir misol keltiradi: koʻylak, pidjak, galstuk. Garchi bu uch narsa kiyim-kechakga tegishli boʻlsa-da, ular oʻzaro aloqador emas. Alohida-alohida olib qaralganda, har birining shakli-shamoyili,

vazifasi boshqa-boshqa. Bunday holatda bular o‘zaro hech qanday muomala-aloqa qila olmaydi. Bu buyumlar yagona bir tizimga kiritilgandagina, bir-biri bilan belgi munosabatlariga kirisha oladi. Aniqroq qilib aytganimizda sintagmatik munosabat yuzaga keladi.

Sintagmatik munosabat haqidagi taassurotlarni aniqlashtirish maqsadida shoir Rauf Parfining 1962 yilda yozilgan “Xayrlashdik...O‘ynar kapalak...”¹ nomli o‘n uch misradan iborat bo‘lgan she‘rini tahlil etishga kirishamiz.

Struktur tahlil mezonlariga muvofiq matnni eng kichik birlik – leksiyalarga ajratib chiqamiz (Leksiya bir so‘zdan bir baytgacha bo‘lishi mumkin):

1-leksiya. “Xayrlashdik...O‘ynar kapalak...”

2-leksiya. Xayrlashdik...

3-leksiya. O‘ynar kapalak...

4-leksiya. Biz asir bo‘lmadik lahzaga.

5-leksiya. Xayrlashdik beso‘z, beyurak,

6-leksiya. Bu bog‘, bu gul keldi larzaga.

7-leksiya. Shabnamning sof qadahi sindi –

8-leksiya. Kulimizni sovurdi falak –

9-leksiya. Sen mendan ayrilding, men sendan,

10-leksiya. O‘yin tushar rangin kapalak.

11-leksiya. O‘ynar, o‘ynar. O‘ynar kapalak.

12-leksiya. Bir lahzaning farmoni qoldi.

13-leksiya. Xayrlashdik. Beso‘z. Beyurak.

14-leksiya. Buyuk sevgi armoni qoldi...

15-leksiya. Qanday go‘zal rangin kapalak...

Ko‘rinyaptiki, matnni kichik birliklarga ajratish tadqiqotchining niyati, imkoniyat darajasi kabilarga bog‘liq. Shunga qarab matn bo‘laklari soni turlicha bo‘lishi mumkin.

Matn tahlili:

1-leksiya. “Xayrlashdik...O‘ynar kapalak...” Struktur-semiotik tadqiqotni boshlashdan oldin tanlab olingan badiiy matn kamida besh-olti marta sinchiklab o‘qib chiqiladi. Matnni o‘qish bilan birgalikda uqib ham borish lozim. Ayniqsa, eng so‘nggi mutolaa chog‘ida matnni juda sekin mutolaa etish zarur. Hech bir so‘z, hatto tinish belgilari ham e‘tibordan chetda bo‘lmasligi shart. Shundagina matn mohiyati tadqiqotchiga oydinlashib boradi.

Binobarin, birinchi matniy bo‘lak tarkibiga kirgan atigi uchta so‘zdan tashkil topgan ikkita gapda aytilgan fikrlar tadqiqotchiga ham, she‘rxonga ham muayyan bir taassurot bera oladi. Bu o‘rinda gap sevgi haqida bormoqda. “Xayrlashdik” – yigit va qiz(yoki erkak va ayol) matnda aytilmagan sabablarga ko‘ra bir-birlaridan ajralib ketishyapti. Bu vaqtinchalik emas, mangu ayriliqdir.

“O‘ynar kapalak”. Bu o‘rinda “kapalak” so‘zi konnotativ ma‘noda qo‘llanmoqda. Mazkur ko‘chma ma‘noni anglash uchun og‘zaki va yozma badiiy ijod namunalari hamda xalq jonli so‘zlashuv nutqini xotirga keltirish lozim. “Xalq tasavvurida kapalak beqarorlik, shu bilan birga, bevafoqlik timsolidir. Kapalak o‘yini ko‘pga bormaydi, u bir necha lahza davom etadi”, xolos.

Shunday qilib, “xayrlashish” kommunikativ, “Kapalak o‘yini” konnotativ ma‘no kasb etadi. Ular

¹ Rauf Parfi. Sakina.- Toshkent: «Muharrir» nashriyoti, 2013.

ikkalasi sintagmatik qatorga birlashgandagina, she'riy parchada yangi tushuncha hosil bo'ladi: matn ibtidosi barqaror bo'lmagan sevgiga oid qarashni ifodalamoqda.

Ikkinchi va uchinchi leksiyalar sarlavhada ifodalangan fikrni kuchaytirishga xizmat qilyapti.

4-leksiya. Biz asir bo'lmadik lahzaga.

Lahzaga asir bo'lish aslida muhabbatni mangu va eng yuksak, noyob tuyg'u deb bilishdir. Ammo "oshiq" va "ma'shuqa" bunday noyob kechinmani yurak-yurakdan anglab etmaganlar. Ularning yuzaki, havoyi his-tuyg'ulari o'tkinchi bir xavas, xolos. Ishq yo'lida o'limdan ham tap tortmagan Farhodu Shirin, Laylovu Majnunlar qayoqda-yu, bu ikki "sevishganlar" qayoqda...

4-leksiya. Xayrlashdik beso'z, beyurak.

Bu matniy bo'lakdagi fikr birinchi va ikkinchi leksiyadagi qarashni qarashni boshqacharoq shaklda takrorlash bilan bir qatorda uni yanada ta'kidlab ko'rsatayotir. Xayrlashish so'zsiz va beyurak tarzda kechmoqda ekan, Demak, o'rtada chin ishqiy munosabatdan zarra ham yo'q, bir-birlariga aytadigan biror so'z qolmagan. Yuraklar hissiz, bo'm-bo'sh.

5-leksiya. Bu bog', bu gul keldi larzaga. Ushbu she'riy parchada "bog'" va "gul" lisoniy birliklari ham asl(kommunikativ), ham ko'chma(konnotativ) ma'nolarda istitfoda etilayotir. Asl ma'noda "bog'" ikki beqaror yosh uchrashib turadigan joy, "gul"(bog'dagi tilsiz guvoh) bunday muloqot-kurishuvlar, yalab-yulqashlarga ko'p marotaba shohid bo'lgan. Ko'chma ma'noda esa "bog'" muhabbat saltanati, "gul" esa shu yurtning sadoqatli vakili. Ular xiyonatni, oqibatsizlikni tasavvurlariga sig'dira olmaydilar, Oqibatsiz kimsalarning "vaqtinchalik ko'ngilxushliklari"dan ularning qalbi larzaga keladi.

6-leksiya. Shabnamning sof qadahi sindi. Misra sof konnotativ mazmunga ega. Shabnam – musaffo tuyg'u ramzi. "Shabnam to'ldirilgan sof qadah" esa pokiza tuyg'ular to'lib-toshgan navqiron qalb. Mazkur misradan ma'lum bo'ladiki, asli bu "lirik qahramonlar" boshda sevgi bog'iga toza niyat qadam qo'ygan ekanlar. Ammo qandaydir sabablarga ko'ra ular sevgida sobit bo'la olmaganlar.

7-leksiya. Kulimizni sovurdi falak. Bu matniy birlik avvalgi leksiyadagi misra bilan o'zaro aloqaga kirishib, undagi fikrni tasdiqlamoqda. Sof tuyg'ularga limmo-lim yurak tanazzulga yuz tutgan ekan, yorqin istiqbol haqida so'z bo'lishi mumkin emas. Tahlil etilayotgan misradagi ustuvor fikr sevgidan mosuvo bo'lgan insonning kelgusi hayoti ayanchli va achinarli bo'lishini ko'rsatmoqda. Oltinchi va ettinchi misralardagi belgilar aloqa-munosabatga kirishib, alohida sintagmatik qatorni tashkil etgan.

8-leksiya. Sen mendan ayrilding, men sendan. Matniy birlik kommunikativ mazmunga ega. Bunda birinchi misrada bayon etilgan fikr yana bir bor ta'kidlanayotir.

9-leksiya. O'yin tushar rangin kapalak. –birinchi leksiya tarkibiga kirgan misra bir oz o'zgartirilgan holda takrorlanmoqda. Bunday takrorning poetik-funkstional o'rni shundan iboratki, "o'yin tushayotgan rangin kapalak" - beqaror insoniy munosabatlar katta fojia, u nafaqat shaxs, balki millat, insoniyat tanazzuliga sabab bo'lishi mumkin. Matnning ikkinchi leksiyasida "rangin" sifatlashi mavjud emas edi. Aynan hozir ko'zdan kechirayotgan misrada bo'lishini e'tibordan soqit etmaslik zarur. "Kapalak" o'z-o'zicha go'zal ko'rinmaydi. Birinchi navbatda uning qanotlaridagi jilokor ranglar atrofdagilarning e'tiborini tortadi. Ranginlik – bu tashqi jilo, bezak, u mohiyatga ega emas. Agar bu belgining "bilinuvchisi"ga diqqat qilsak, unda ramziylik borligiga ishonch hosil qilamiz. "Sevgi" dargohidagi soxta oh-vohlar, bir-biriga hirsiy talpinishu bo'salar ana shunday

“ranginlik” alomatlaridir. Haqiqiy ishqda boshqacha manzaralarni ko’ramiz. Farhod har safar Shirinni ko’rganda, hushdan ketadi, Majnun Laylining qo’lini ushlab ham xayoliga keltira olmaydi. Mana shular chin muhabbat nishonalari.

Sakkizinchi va to’qqizinchi misralardagi belgilar tashqi jihatdan bir-birlariga yaqin emas. Ular faqat sintagmatik aloqaga kirishgan holda bir-birini to’ldirib, aytilmoqchi bo’lgan badiiy fikrni yorqinlashtira oladi.

10-leksiya. O’ynar, o’ynar. O’ynar kapalak.

Yaxlit matn tarkibida “kapalak” bilan bog’lik beshta matniy bo’lak mavjud. Ular bir-birini to’ldirib, ta’kidlab bormoqda. Ushbu parchada “o’ynar” fe’li uch marta ketma-ket takrorlangan. Bir-biriga bog’lanadigan ikki manzara (asl ma’nodagi kapalak o’yini va besabot tuyg’u)ni yanada aniqroq tasavvur qilishga, shu bilan bir qatorda, matn drammatizmi hamda fojiviy pafosni kuchaytirishga qaratilgan.

12-leksiya. Bir lahzaning farmoni qoldi. – konnotativ jihatdan bu mangu ayriligni ifodalamoqda. Sof insoniy munosabatga so’nggi nuqta qo’yilyapti. Bir-biriga yaqin va uyg’un bo’lgan ikki qalb bir-biridan ajralmoqda. So’nggi ikki matniy birlik aloqaga kirishib, sintagmatik munosabat orqali matn yaxlitligini ta’min etishga hissa qo’shayotir.

15-leksiya. Qanday go’zal rangin kapalak... – “kapalak” bilan bog’liq misra o’zgartirilgan holda oxirgi marta istifoda etilgan. Bu matnni yakunlovchi birlikdir. Shu paytgacha amalga oshirgan tahlilimizning umumiy mazmunidan kelib chiqqan holda mazkur matn bo’lagi haqida quyidagi fikrlarni aytish mumkin bo’ladi: misra muallif obrazining o’tkinchi hislar haqidagi dardli o’y-fikrlari, g’am-o’kinchi, qalb nolalarini ifodalashda. Kommunikativ nuqtai nazardan qaralsa, chindanda, rangin va jilvakor, raqs tushayotgan kapalak ko’zga juda go’zal va betakror ko’rinadi. Ammo kapalakning raqsi ham, umri ham o’tkinchidir. Kapalak juda oz umr ko’radi. Konnotativ nuqtai nazardan ko’zrib chiqilsa, soxta sevgi hech kimga baxt keltirmaydi. Uning oqibati “so’nggi farmon”, ya’ni ayriligidir. Majburiy emas, ixtiyoriy hijron. Uning hosilasi ezgu va oliy kechinmalardan mahrum bo’lmagan qalb va baxtdan ayrilgan azobli umrdir.

Garchi sintagmatik munosabatlar nisbatan badiiy matn tarkibida kamroq uchrasada, ularning ahamiyati paradigmatic va zid aloqa-bog’lanishlardan kam emas. Bunday munosabat matn yaxlitligini yuzaga keltirish va unda murakkab insoniy kechinma va o’y-fikrlarni yagona badiiy struktura maydonida yuzaga keltirish ishida g’oyat muhim o’rin tutadi.

Matnda tasvir etilgan aksariyat sintagmatik munosabatlar “kapalak”ka oid belgilarga aloqadordir.

“Sevgi”ga bevosita aloqador bo’lmagan “kapalak” boshqa belgilar bilan sintagmatik aloqaga kirishib, aytilmoqchi bo’lgan yetakchi fikr-g’oyani yuzaga chiqarish va oydinlashtirishga xizmat qilgan.

She’riy matnda ifoda topgan ustuvor fikr-g’oya quyidagilardan iborat: faqat chinakam muhabbatgina insonni baxt-saodatli etishga qodir. O’tkinchi hoyu havaslar shaxsni yemiradi, uning ma’naviy-axloqiy tanazzuliga sabab bo’ladi. Binobarin, buyuk sevgi yo’lida sobit bo’lish shart.

Qisqasi, birinchi bosqich sinonimlarining lug’atlari asosan ro’yxatlardan tashkil topgan bo’lib, so’z turkumlari tematik tamoyillar asosida tashkil etilgan bo’lib, ritorikani o’rgatish, so’zlarning nozik semantik farqlarini tushunish va nutqda ishlatish uchun ishlatiladi. faqat ro’yxatlar emas, balki ularning izohlari berilgani, izohlarda sinonimlarning tarixiy taraqqiyoti, xoh og’zaki yoki adabiy tilga

xos bo'lsin, xoh o'z yoki o'zlashtirilgan qatlam so'ziga oid ma'lumotlar ham borligi kuzatiladi.²

Keltirilgan maqolada zoonim komponentlari bo'yicha milliy-madaniy dunyoqarashni o'z ichiga oladi va ahamiyati muhokama qilinadi. Zoonimlar maslahat berish, to'g'ri yo'l ko'rsatish, ibrat olish, hayot, inson va tabiat, inson va koinot, inson va boshqalar falsafasini inqilab uchun keng qo'llaniladi.³

Maqolada oziq-ovqat mahsulotlari nomlarini o'z ichiga olgan hamda rus va o'zbek til madaniyatlarining o'ziga xos xususiyatlarini ifodalovchi paremiyalarning qiyosiy tahlili keltirilgan. Material sifatida oziq-ovqat mahsulotlarining nomlarini o'z ichiga olgan rus va o'zbek paremiyalaridan foydalaniladi, rus tilidagi maqol va matallarni tahlil qilish va ularni o'zbek maqollari va maqollari bilan taqqoslash dunyoning gastronomik rasmiga ikki xalq orasida rivojlangan va butun dunyoda mustahkamlangan yangi tafsilotlarni qo'shishga imkon beradi.⁴

Kompyuterlar til o'rganish joriy qilinishi boshladi beri (va umuman ta'lim) odamlar to'g'ri, bu texnologiyalar qilamiz investitsiya bizga pul uchun qiymati beradi yoki yo'qligini so'radi bor. Raqamli texnologiyalar umuman jamiyatda o'z o'rnini egallaganligi sababli, ushbu savol tez-tez so'ralmaydi, ammo bizda mavjud bo'lgan texnologiyalardan samarali foydalanilganligiga ishonch hosil qilish muhimdir.⁵

Maqolada madaniyatlararo aloqalar nazariyasi kontekstida rus adabiyotining propedevtik kursini o'rganish haqida gap boradi. Taqdim etilgan ilmiy yo'nalishda turli xil milliy adabiyotlarni qiyosiy-tarixiy, ancha tipologik o'rganish muammolari eng istiqbollidir.⁶

Til portfoliosi o'zlikni anglash, o'zlikni anglash, o'zlikni kamol toptirish vositasi sifatida qaraladi. O'yin texnologiyalari bilan rus tili fanidan amaliy darsning parchasi va dars natijalari asosida kasbiy yo'naltirilgan o'quvchilarning olgan ko'nikmalarini sinash uchun jadval berilgan.⁷

Adabiy tarjimani baholashning asosiy mezonlari nafaqat original matnga yaqin, balki ish uslubi va muallifning shaxsiy uslubini ham saqlaydi. Ushbu qisqa maqolada, belgilangan aloqa muammosini hal qilish uchun tarjimonga nima kerakligini aniqlashga harakat qilamiz.⁸

Odamlar tug'ilganda hamma narsani tushunmaydilar, lekin ular tushuna olishlari uchun hamma narsani o'rganishlari kerak. Masalan, chet tilini o'rganishni olaylik; hamma ham buni tushuna olmaydi, lekin ba'zi ona tili bo'lmaganlar bu tildan juda yaxshi foydalanishlari mumkin. Bu nafaqat chet tili, balki boshqa fanlar bilan ham bog'liq. Shuning uchun, o'quv jarayonida ba'zi odamlar har bir mavzuni yoki bir nechta mavzularni juda tez va yaxshi o'rganishlari mumkin. Boshqa tomondan, ba'zi odamlar o'rganishda muammolarga duch kelishadi.⁹

So'zning semantik hajmi, til korpusi va o'zbek tili korpusini yaratish tabiati ushbu maqola

² Mirxanova, G. R. (2022). STAGES OF ENHANCEMENT OF SYNONYM DICTIONARIES. *International Journal of World Languages*, 2(1).

³ Tosheva, D. (2016). National-cultural outlook onto the zoonym component aphorisms. *Journal of Social Sciences and Humanities Research*, 4(03), 22-25.

⁴ Maxmutovna, M. L. (2022). LINGUOCULTURAL FEATURES OF GASTRONOMIC PAREMIAS IN RUSSIAN AND UZBEK LANGUAGES. *Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL)*, 3(1), 111-116.

⁵ Bozorova, N. X., & Salixova, Z. A. Using Technology to Assist in Vocabulary Acquisition and Reading Comprehension. *International Journal on Integrated Education*, 2(6), 213-215.

⁶ Sharipovna, B. M. (2020). Studying of a propaedeutic course of the Russian literature in a context of the theory of intercultural communications. *Academy*, (4 (55)).

⁷ Shodiyeva, D. Y. (2019). LANGUAGE PORTFOLIO-A TOOL FOR SELF-REALIZATION OF PROFESSIONAL-LANGUAGE COMPETENCIES OF A STUDENT. *Theoretical & Applied Science*, (11), 131-135.

⁸ Муродов, Г., & Саидова, Р. (2017). Интерпретация терминов и их анализ. *Молодой ученый*, (13), 703-705.

⁹ TX, A. S. A. Learning Strategies and Learner Characteristics. *International Journal on Integrated Education*, 2(6), 206-208.

tahlili ostida. Semasiologik tadqiqotlar uchun prinsipial ahamiyatga ega bo'lgan bu masala tilshunoslikda turlicha talqin qilingan.¹⁰

Adabiy tarjimani baholashning asosiy mezonlari nafaqat original matnga yaqin, balki ish uslubi va muallifning shaxsiy uslubini ham saqlaydi. Ushbu qisqa maqolada, belgilangan aloqa muammosini hal qilish uchun tarjimonga nima kerakligini aniqlashga harakat qilamiz.¹¹

Markaziy Osiyodagi Uyg'onish davri jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotida eng katta yutuqlarga erishdi. Bu davrda siyosiy va huquqiy fanlar, yangi adabiyot va san'at, tibbiyot, falsafa, yangi estetik ong yaratildi.¹²

Hozirgi davrga kelib O'zbekistonda ayollar jumladan, xotin-qizlarning qonuniy-ijtimoiy manfaatlarini himoya qilish, ayollarning mamlakat siyosiy hayotidagi to'laqonli ishtirokini ta'minlash, gender tenglik va reproduktiv salomatlik bo'yicha olib borilayotgan davlat siyosatiga jahon hamjamiyati ya'ni BMT, xalqaro mehnat tashkiloti, YUNISEF, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti kabi nufuzli xalqaro ixtisoslashgan muassasalar tomonidan yuqori baho berilmoqda.¹³

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, "ma'naviyat" ilmiy tushuncha sifatida tahlil qilinib, o'rganildi. Eng avvalo "Ma'naviyat nima?" degan savol tug'ildi. inson ma'naviy olamini boyitishda muhim o'rin tutadigan barcha ijtimoiy-gumanitar sohalar (fan, tilshunoslik, adabiyot, tarix, dinshunoslik, sotsiologiya, etika, estetika) mutaxassislari. va jamiyat ilmiy javob topish muammosiga duch keldi.¹⁴

Rus adabiyoti jahon madaniyatining alohida qatlami bo'lib, o'tmishda insoniyat oldida mavjud bo'lgan asosiy muammolarni o'ziga xos tarzda tahlil qiladi.¹⁵

Badiiy matnda poetik-funksional munosabatlar badiiy matn yaxlitligini ta'min eta olgan. Aks holda matn ham, belgilar munosabati ham yuzaga kelmagan bo'lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rauf Parfi. Sakina.- Toshkent: «Muharrir» nashriyoti, 2013.
2. Mirxanova, G. R. (2022). STAGES OF ENHANCEMENT OF SYNONYM DICTIONARIES. *International Journal of World Languages*, 2(1).
3. Tosheva, D. (2016). National-cultural outlook onto the zoonym component aphorisms. *Journal of Social Sciences and Humanities Research*, 4(03), 22-25.

¹⁰ Bahodirovna, A. D. Semantic Labeling of Language Units. *International Journal on Integrated Education*, 3(1), 177-179.

¹¹ Саидова, М. Р., & Болтаева, М. Ш. (2020). Обучение профессиональным и общекультурным компетенциям студентов направления «туризм» на занятиях русского языка. *Достижения науки и образования*, (5 (59)), 48-50.

¹² Tolibjonovich, M. T. (2021). EASTERN RENAISSANCE AND ITS CULTURAL HERITAGE: THE VIEW OF FOREIGN RESEARCHERS. *ResearchJet Journal of Analysis and Inventions*, 2(05), 211-215.

¹³ Фуломжонов, О. Р. Ў. (2021). ЖАМИЯТ ТАРАҚҚИЁТИНИНГ ЯНГИ БОСҚИЧИДА ГЕНДЕР ТЕНГЛИКНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ИЖТИМОИЙ АҲАМИЯТИ. *Scientific progress*, 1(4).

¹⁴ Rasulovna, S. M., Aripovna, A. K., Askarovna, U. D., Kamilovna, E. D., & Almasovna, S. N. (2020). The analysis of the concept of "spirituality" and the emergence of different approaches in dictionaries and modern scientific literature. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(1), 320-325.

¹⁵ МУРТАЗАЕВА, Ф., & Эргашева, Д. К. (2020). ОБРАЗ ЖЕНЩИНЫ В РУССКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ: ОТ КЛАССИЦИЗМА К ПОСТМОДЕРНИЗМУ. *Электронный инновационный вестник*, (5), 19-21.

4. Maxmutovna, M. L. (2022). LINGUOCULTURAL FEATURES OF GASTRONOMIC PAREMIAS IN RUSSIAN AND UZBEK LANGUAGES. *Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL)*, 3(1), 111-116.
5. Bozorova, N. X., & Salixova, Z. A. Using Technology to Assist in Vocabulary Acquisition and Reading Comprehension. *International Journal on Integrated Education*, 2(6), 213-215.
6. Sharipovna, B. M. (2020). Studying of a propaedeutic course of the Russian literature in a context of the theory of intercultural communications. *Academy*, (4 (55)).
7. Shodiyeva, D. Y. (2019). LANGUAGE PORTFOLIO-A TOOL FOR SELF-REALIZATION OF PROFESSIONAL-LANGUAGE COMPETENCIES OF A STUDENT. *Theoretical & Applied Science*, (11), 131-135.
8. Муродов, Г., & Саидова, Р. (2017). Интерпретация терминов и их анализ. *Молодой ученый*, (13), 703-705.
9. TX, A. S. A. Learning Strategies and Learner Characteristics. *International Journal on Integrated Education*, 2(6), 206-208.
10. Bahodirovna, A. D. Semantic Labeling of Language Units. *International Journal on Integrated Education*, 3(1), 177-179.
11. Саидова, М. Р., & Болтаева, М. Ш. (2020). Обучение профессиональным и общекультурным компетенциям студентов направления «туризм» на занятиях русского языка. *Достижения науки и образования*, (5 (59)), 48-50.
12. Tolibjonovich, M. T. (2021). EASTERN RENAISSANCE AND ITS CULTURAL HERITAGE: THE VIEW OF FOREIGN RESEARCHERS. *ResearchJet Journal of Analysis and Inventions*, 2(05), 211-215.
13. Фуломжонов, О. Р. Ў. (2021). ЖАМИЯТ ТАРАҚҚИЁТИНИНГ ЯНГИ БОСҚИЧИДА ГЕНДЕР ТЕНГЛИКНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ИЖТИМОЙ АҲАМИЯТИ. *Scientific progress*, 1(4).
14. Rasulovna, S. M., Aripovna, A. K., Askarovna, U. D., Kamilovna, E. D., & Almasovna, S. N. (2020). The analysis of the concept of “spirituality” and the emergence of different approaches in dictionaries and modern scientific literature. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(1), 320-325.
15. МУРТАЗАЕВА, Ф., & Эргашева, Д. К. (2020). ОБРАЗ ЖЕНЩИНЫ В РУССКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ: ОТ КЛАССИЦИЗМА К ПОСТМОДЕРНИЗМУ. *Электронный инновационный вестник*, (5), 19-21.